Badmintonchilarda maxsus chaqqonlik tayyorgarligining o'yin faoliyatiga ta'siri	694
<i>Samadova Uktabar Hasanovna</i>	
<i>Maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishda sinergetik</i>	
yondashuvning o'rni va ahamiyati	698
<i>Yusupova Dilnoza Fayzullayevna</i>	
Pedagogical Essence of Improving Students' Collaborative Skills Through Multi-Vector Approaches	702
<i>Turemuratova Aziza Begibaevna, Otelbayeva Muhayyo Alisher qizi</i>	
Tasviriy san'at mashg'ulotlarining maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv, estetik va ijodiy rivojlanishiga ta'siri	708
<i>Shaymuradov Taxir Zamanovich</i>	
Oliy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni baholash mezonlari: falsafa fanining o'quv jarayoniga integratsiyasi	713
<i>Abdullayev Akmal Nasriddinovich</i>	
Klasterli ta'lim muhitida bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodlari.....	717
<i>Abdurahmonov Maqsad Bekjonovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanishning yetakchi omillari.....	720
<i>Abduvosiyeva Mahmuda Xamidullo qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini oshirish: zamonaviy yechimlar va muammolar	724
<i>Abduxalimova Yulduz Normurod qizi</i>	
Maktablarda sun'iy intellekt asosida xorijiy tillarni o'qitish afzalliklari	728
<i>Altimisheva Iroda Mavlonovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	731
<i>Ashurov Yusuf Alisher o'g'li</i>	
Bolalikni qayta anglash: mariya montessori pedagogik qarashlarining ilmiy asoslari	735
<i>Ismatullayeva Madinabonu Akmaljon qizi</i>	
14-15 yoshli o'quvchilarning jismoniy tarbiya vositalari orqali jismoniy tayyorgarligi samaradorligini oshirish metodi	740
<i>Karimboyev Og'abek Qadamboyevich</i>	

O'zbekiston xalqlarining amaliy san'ati va ma'naviy merosini o'rganish: tarixiy va pedagogik jihatlar	744
Kayumov Erkin Kazakbayevich	
Fizika ta'limida kognitiv texnologiyalar asosida talabalarning mantiqiy va analitik tafakkurini rivojlantirish yo'llari	748
Madumarov Shodonbek Az'amjonovich	
Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonlarida pedagogik-psixologik bilimlarning ahamiyati	751
Muratova Shaxnoza Ibatovna	
Yoshlar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashda pedagogik resurslar va hamkorlik infratuzilmasining ahamiyati	754
Matnazarov O'ktam Latipovich	
Maxsus pedagogika o'qituvchilarining pedagogik va psixologik tayyorgarlik darajasi	757
Oxunov Ilxomjon Abdunabiyeich	
Funksional bog'liqlikni tushinishda vizual-eksperimental metodning samaradorligi	760
Qobilova Nargiza Anvarovna, Shamuratov Zafar Ergashevich	
The Psychological Importance of Emotional Intelligence and Stress Resilience in Increasing Professional Efficiency of Primary School Pedagogues	766
Tajiboyeva Odinakhon	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar jarayoni sifatini monitoring qilish vositasi sifatida	769
Tashbayev Naim Sadikovich	
Axloqiy tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati	773
Temirova Oydina Muhiddinova	
Oliy ta'lim muassasalarida "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanini o'qitishning metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlari	776
Xamidov Dilshod Olimjon o'g'li	
Kasbiy ta'lim rahbarlarining individual yondashuv asosida kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ...	780
Yangiboyev Kamol Norboyevich	
Тема экологических проблем как элемент духовно-нравственного воспитания студентов в произведениях Чингиза Айтматова	784
Абдулвохидов Элёр	
Девиантное поведение школьников в образовательной среде: проблемы классификации и гендерные особенности восприятия педагогами	789
Алимжанова Матлюба Юнусовна	
Анализ проблем развития профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов	793
Исраилова Илона Халитовна	
Психолого-педагогические условия использования изобразительной деятельности как средства стимуляции коммуникативных навыков у воспитанников с синдромом дауна	798
Каримова Регина Шовкатовна	
Методика развития специальной физической подготовленности футболистов 11–12 лет с использованием современного инновационного оборудования	802
Мирзабаев Диёрбек Камилович	
Нейроигра как эффективное средство развития познавательных и регуляторных функций у детей дошкольного возраста	805
Намазбаева Лола Закировна, Маткаримова Шарира Рахимжановна	
Методы и приёмы технологии развития критического мышления в курсе "Общая педагогика": опыт проектирования учебного процесса в вузе	809
Янкина Рано Садыковна	

FUNKSIONAL BOG'LIQLIKNI TUSHUNISHDA VIZUAL- EKSPERIMENTAL METODNING SAMARADORLIGI



Qobilova Nargiza Anvarovna

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani MMTBga qarashli 23-umumiy o'rta ta'lim maktabi 1-toifali matematika fani o'qituvchisi



Shamuratov Zafar Ergashevich

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani MMTBga qarashli 23-umumiy o'rta ta'lim maktabi 2-toifali informatika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Kvadrat funksiyalar" mavzusini o'qitishda vizual-eksperimental metodning samaradorligi tadqiq etilgan. Ilmiy yangilik sifatida aynan kvadrat funksiyalarga ixtisoslashgan "Vizual Algebra" dinamik tizimi ishlab chiqildi. Qiyosiy taqqoslash natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu interaktiv yondashuv o'quvchilarning funksional bog'liqlikni tushunish va mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini an'anaviy metodga nisbatan sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so'zlar: funksional bog'liqlik, vizual-eksperimental metod, kvadrat funksiya, "Vizual Algebra" tizimi, interaktiv ta'lim, dinamik geometriya.

Abstract: This article investigates the effectiveness of the visual-experimental method in teaching quadratic functions in secondary schools. As a scientific novelty, a specialized dynamic system, "Visual Algebra," was developed. Comparative analysis results showed that this interactive approach significantly improves students' understanding of functional dependence and their independent analytical skills compared to the traditional method.

Key words: functional dependence, visual-experimental method, quadratic function, "Visual Algebra" system, interactive education, dynamic geometry.

Аннотация: В статье исследуется эффективность визуально-экспериментального метода при обучении квадратичным функциям в школах. В качестве научной новизны разработана специализированная динамическая система "Визуальная алгебра". Результаты сравнительного анализа показали, что данный подход значительно повышает понимание учащимися функциональной зависимости и их навыки самостоятельного анализа по сравнению с традиционным методом.

Ключевые слова: функциональная зависимость, визуально-экспериментальный метод, квадратичная функция, система "Визуальная алгебра", интерактивное обучение, динамическая геометрия.



KIRISH

Matematika fanining asosiy bo'limlaridan biri bo'lmish algebra, xususan, kvadrat funksiyalar mavzusi o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Maktablarda olib borilgan pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab o'quvchilar aynan ushbu mavzuni o'zlashtirishda jiddiy qiyinchiliklarga uchraydilar. Ular $y = ax^2 + bx + c$ formulasini yodlab olishsa-da, parametrlarning grafikdagi o'zgarishini tasavvur qilishda qiynaladilar. Bu esa matematik tushunchalarning yuzaki o'zlashtirilishiga olib keladi. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, unga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvlarni va zamonaviy metodikalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning obyekti sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablarida kvadrat funksiyalarni o'qitish jarayoni belgilangan bo'lsa, tadqiqot predmeti ushbu jarayonda dinamik geometriya muhiti asosidagi vizual-eksperimental metoddan foydalanish hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – kvadrat funksiyalarni o'qitishda vizual-eksperimental metodning samaradorligini amaliy pedagogik tajribalar orqali ko'rsatib berish hamda bu metodni to'laqonli amalga oshirish imkonini beruvchi maxsus "Vizual Algebra" interaktiv tizimini taqdim etishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo'lida o'quvchilarning funksional bog'liqlik va parametrlarning geometrik ma'nosini anglashdagi mavjud metodologik muammolarini chuqur tahlil qilish, shuningdek, nazariy bilimlarni o'quvchining mustaqil izlanishi va shaxsiy eksperimenti orqali mustahkamlashga qaratilgan amaliy yechimlarni ishlab chiqish hamda ularning samaradorligini sinovdan o'tkazish kabi vazifalar belgilab olindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Matematika va, xususan, algebra fanini o'qitish metodologiyasi ko'plab mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Masalan, A. Jo'rayev ^[1] asarlarida funksiyalarni o'qitish asosan an'anaviy tushuntirish-illyustrativ usulda olib borilishi bayon qilingan. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinflari uchun mo'ljallangan B. Karimov va N. Ahmedov muallifligidagi darsliklarda ^[2] ham kvadrat funksiyalarning nazariy asoslari statik chizmalar va qoidalar orqali yoritilgan. Biroq an'anaviy yondashuv o'quvchilarga parametrlar va grafik o'rtasidagi dinamik bog'liqlikni mustaqil kashf qilish imkonini bermaydi. Ta'limda raqamli texnologiyalar va axborot resurslaridan foydalanish masalalari Z. To'xtayeva ^[3] hamda D. Raximov ^[6] kabi olimlar tomonidan chuqur tahlil qilingan. R. Sultonov ^[5] kvadrat funksiyalarni o'qitishda interaktiv metodlarning samaradorligini alohida ta'kidlaydi. O. Qodirov ^[4] esa matematika darslarida dinamik geometriya muhiti, xususan, GeoGebra dasturining amaliy ahamiyatini ochib bergan.

Haqiqatan ham, GeoGebra, PhET, Grafrechner va Wolfram Alpha kabi raqamli resurslar ta'limda kuchli vizualizatsiya vositalari hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan adabiyotlar va dasturiy vositalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud raqamli resurslar ko'p funksiyali va umumiy maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchidan kerakli vositani topish uchun qo'shimcha buyruqlar kiritishni talab etadi. Bu esa ko'pincha o'quvchi e'tiborini darsning asosiy maqsadidan chalg'itishga olib keladi. Mazkur tadqiqotda ilgari surilayotgan masalaning o'ziga xosligi shundaki, an'anaviy va umumiy maqsadli dasturlardan farqli o'laroq, aynan kvadrat funksiyalarni o'qitishga ixtisoslashgan "Vizual Algebra" interaktiv tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim mavjud xorijiy va mahalliy muqobilardan bir qator xususiyatlari bilan ustunlik qiladi: u o'zbek tilidagi to'liq va sodda interfeysga ega, slayderlar oralig'i cheklanmagan bo'lib, istalgan ekstremal (cheksiz) qiymatlar bilan ishlay oladi. Eng muhimi, kiritilgan parametrlar asosida o'quvchiga avtomatik ravishda to'liq matnli xulosa taqdim eta oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kvadrat funksiyalarni o'qitishda o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasini oshirish maqsadida vizual-eksperimental metoddan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi konstruktivizm nazariyasiga hamda Lev Vygotskiyning "Yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasiga tayanadi. Ushbu nazariyalarga ko'ra, bilim o'quvchiga tayyor holda berilmaydi, balki uning shaxsiy faoliyati va izlanishlari jarayonida shakllantiriladi. Shuningdek, jarayonda vizualizatsiya va muammoli ta'lim tamoyillaridan ham unumli foydalanildi. Ma'lumki, vizualizatsiya o'quvchilarga mavhum algebraik tushunchalarni aniq geometrik obrazlar orqali ilg'ash imkonini beradi. Muammoli ta'lim esa ularda mantiqiy fikrlash va qonuniyatlarni mustaqil ochish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu ilg'or pedagogik tamoyillarni dars jarayonida yaxlitlashtirish va vizual-eksperimental metodni amalda to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun maxsus raqamli ta'lim muhiti zarurati yuzaga keldi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda asosiy tadqiqot vositasi sifatida maxsus ishlab chiqilgan "Vizual Algebra" veb-platformasi xizmat qildi. Tizim arxitekturasida uchta asosiy qismdan iborat bo'lib, ular parametrlar paneli, dinamik grafik oynasi va funksiya tahlili bo'limlaridir. Quyidagi 1-rasmda foydalanuvchi tomonidan parametrlarni kiritish va tahlil natijalarini olish jarayoni ko'rsatilgan.



Parametrlarni kiriting

↑ a parametri (tarmoqlar yo'nalishi va shakli)

= 1

– Manfiy ☐ Musbat ☒

Slider -10 dan 10 gacha, lekin siz istalgan son kiritishingiz mumkin

↔ b parametri (simmetriya o'qi)

= 0

– Manfiy ☐ Musbat ☒

↕ c parametri (OY o'qi bilan kesishish)

= 0

– Manfiy ☐ Musbat ☒

☒ Grafikni chizish

Tayyor eksperimentlar:

↑ a > 0 ↓ a < 0 → b = 5 ↑ c = 5

● D = 0 ∞ a = 100 ∞ a = 0.01

Cheksiz qiymatlar: Istalgan sonni kiriting!
Masalan: 1000, -500, 0.0001, 3.1415. Grafik avtomatik moslashadi.

1-rasm: “Vizual Algebra” tizimining ishchi interfeysi (parametrlar va grafik oynasi)

Platformaning asosiy ustunligi shundaki, o'quvchilar a, b, c parametrlarini ham tezkor slayder orqali, ham ixtiyoriy haqiqiy son kiritish maydoni (cheksiz qiymatlar) orqali o'zgartirishlari mumkin. Parametrlar o'zgartirilishi bilan markaziy oynadagi parabola grafigi real vaqt rejimida yangilanadi.

Parametrlarni kiriting

parametri (tarmoqlar yo'nalishi va shakli)

5,0

anfiy ☒ Musbat ☐

Slider -10 dan 10 gacha, lekin siz istalgan son kiritishingiz mumkin

parametri (simmetriya o'qi)

4,0


anfiy ☒ Musbat ☐

parametri (OY o'qi bilan kesishish)

-5,0

anfiy ☒ Musbat ☐

☒ Grafikni chizish



Funksiya tahlili	
FUNKSIYA:	$y = 5.0x^2 + 4.0x - 5.0$
√ DISKRIMINANT (D):	116.0
● 2 ta haqiqiy ildiz	
📍 UCHI KOORDINATASI:	(-0.4; -5.8)
SIMMETRIYA O'QI:	$x = -0.4$
↑ TARMOQLAR:	yuqori
● OX KESISHISH:	$x = -1.48$ va $x = 0.68$
● OY KESISHISH:	(0; -5.0)
● YULOSA:	

2-rasm: Tizimning avtomatik tahlil va matnli xulosa chiqarish paneli

Shuningdek, 2-rasmda ko'rinib turganidek, tizim kiritilgan ma'lumotlar asosida diskriminant ($D = b^2 - 4ac$), simmetriya o'qi ($x = -b/(2a)$), parabola uchi koordinatalari hamda o'qlar bilan kesishish nuqtalarini avtomatik hisoblab, o'quvchiga tushunarli matnli xulosa shaklida taqdim etadi. Tadqiqotni amaliyotga joriy etish vizual-eksperimental metodning to'rt bosqichli modeli asosida amalga oshirildi:

Tanishish va kuzatish: O'quvchilar platforma bilan tanishib, a, b, c parametrlari uchun slayderlarni erkin manipulyatsiya qilish orqali grafikdagi o'zgarishlarni amalda kuzatdilar. Eksperiment o'tkazish: Dars jarayonida muammoli vaziyatlar (masalan, “c ni manfiy qilsak, nima bo'ladi?”) yaratildi. O'quvchilar farazlar qildilar va platformada amaliy tajriba o'tkazish orqali o'z savollariga javob izladilar. Xulosa chiqarish: O'quvchilar tajriba davomida kuzatilgan qonuniyatlarni umumlashtirdilar va bu xulosalar matematik tildagi formulalar bilan bog'landi. Qo'llash va mustahkamlash: Olingan bilimlar va vizual tasavvurlar asosida o'quvchilar yangi topshiriqlarni hamda teskari masalalarni mustaqil ravishda yechishga kirishdilar. Tadqiqot maqsadiga erishish va taklif etilayotgan metodning samaradorligini isbotlash uchun qiyosiy taqqoslash usulidan foydalanildi. Buning uchun maktabning 9-sinf o'quvchilari orasida amaliy sinov o'tkazildi. O'quvchilarning bir qismiga darslar an'anaviy yondashuv asosida o'tildi. Ikkinchi – eksperimental guruhda esa o'qitish jarayoni “Vizual Algebra” tizimi yordamida vizual-eksperimental usulda olib borildi.



Mashg'ulotlar yakunida ikkala guruh o'quvchilarining mavzuni o'zlashtirish va tushunish ko'rsatkichlari tahlil qilinib, o'zaro solishtirildi. Amaliy mashg'ulotlar davomida o'quvchilar guruhlariga bo'linib, "Vizual Algebra" tizimi yordamida quyidagi uchta asosiy eksperimental tadqiqotni amalga oshirdilar: 1-tajriba (a parametrining roli): $b = 0$ va $c = 0$ holatida o'quvchilar a parametrini 1 dan 2 ga, so'ngra -1 ga o'zgartirish orqali parabola tarmoqlari yo'nalishi va shaklini (enini) kuzatdilar. Natijada $a > 0$ da tarmoqlar yuqoriga, $a < 0$ da pastga yo'nalishi hamda $|a|$ kattalashganda parabola torayishi vizual tarzda tasdiqlandi. 2-tajriba (c parametrining roli): $a = 1$ va $b = 0$ holatida c parametrini 0 dan 3 ga, so'ngra -2 ga o'zgartirish orqali grafikning vertikal siljishi tahlil qilindi.

O'quvchilar parabola OY o'qi bo'ylab c qiymatiga teng masofaga siljishiga ishonch hosil qildilar. 3-tajriba (b parametri va simmetriya o'qi): $a = 1$ va $c = 0$ holatida b parametrini -3 dan 3 gacha o'zgartirish orqali parabola uchining harakat traektoriyasi o'rganildi. O'quvchilar parabola uchi $y = -x^2$ parabolasi bo'ylab harakatlanishini va simmetriya o'qi $x = -b/(2a)$ formulasi bilan aniqlanishini aniqladilar. Yuqorida qayd etilgan amaliy mashg'ulot bosqichlarining yaxlit ko'rinishi maqolada quyidagi infografika orqali ifodalanadi.


2.2. Eksperimental tadqiqot bosqichi (Amaliy mashg'ulot)

Bu bosqichda o'quvchilar guruhlariga bo'linib, quyidagi topshiriqlarni bajaradilar:

1-Tajriba: "a" parametrining roli

Topshiriq: $b=0$ va $c=0$ holatida a parametrini 1 dan 2 ga, so'ngra -1 ga o'zgartir. Parabola tarmoqlari yo'nalishi va shakli (eni) qanday o'zgaradi?


Kuzatish: $a > 0$ da tarmoqlar yuqoriga, $a < 0$ da pastga. $|a|$ katta bo'lsa, parabola eni torayadi.



2-Tajriba: "c" parametrining roli

Topshiriq: $a=1$ va $b=0$ da c ni 0 dan 3 ga, so'ngra -2 ga o'zgartir. Grafik vertikal bo'yicha qanday siljiyye?


Kuzatish: Parabola OY o'qi bo'ylab c qiymatiga teng masofaga siljiydi.



3-Tajriba: "b" parametri va simmetriya o'qi

Topshiriq: $a=1$ va $c=0$ da b ni -3 dan 3 gacha o'zgartir. Parabola uchining harakati qanday traektoriya chizadi?

Kuzatish: Uchi $y = -x^2$ parabolasi bo'ylab harakatlanadi. Simmetriya o'qi $x = -b/2a$ formulasi bilan aniqlanadi.




3-rasm: "Vizual Algebra" tizimida amaliy mashg'ulot va eksperiment bosqichlari

Ushbu vizual eksperimentlar orqali o'quvchilar a, b va c parametrlarining har biri parabolaning shakli, kengligi hamda koordinata tekisligidagi o'rnini uchun qanday mas'ul ekanligini amalda kashf etdilar. Agar an'anaviy yondashuvda bu jarayon faqat quruq yodlashga asoslangan, vizual-eksperimental metodda o'quvchilar har bir parametrning funksiya grafigidagi "xulq-atvori"ni ongli ravishda tushunib yetishdi. Asosiy parametrlar tahlili muvaffaqiyatli yakunlangach, o'quvchilarning diqqati funksiyaning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan va bevosita OX o'qi bilan bog'liq bo'lgan ildizlar masalasiga qaratildi.

Kvadrat funksiya: $y = ax^2 + bx + c$ ($a \neq 0$)

$D > 0$ $D = b^2 - 4ac > 0$

✓ **Ikki xil haqiqiy ildiz**
 $x_1 \neq x_2$




Misol: $y = x^2 - 5x + 6$
 $D = (-5)^2 - 4 \cdot 1 \cdot 6 = 25 - 24 = 1 > 0$
 $x_1 = 2, x_2 = 3$

x_0 – simmetriya o'qi

$D = 0$ $D = b^2 - 4ac = 0$

✓ **Bitta haqiqiy ildiz**
 $x_1 = x_2 = x_0$



Misol: $y = x^2 - 4x + 4$
 $D = (-4)^2 - 4 \cdot 1 \cdot 4 = 16 - 16 = 0$
 $x_0 = 2$ (ikkilangan ildiz)

x_1, x_2 – ildizlar

$D < 0$ $D = b^2 - 4ac < 0$

✗ **Haqiqiy ildizlar yo'q**



Misol: $y = x^2 + 2x + 5$
 $D = (2)^2 - 4 \cdot 1 \cdot 5 = 4 - 20 = -16 < 0$
Haqiqiy ildizlar yo'q

D – diskriminant


4-rasm: Diskriminantning geometrik ma'nosi va uning grafigdagi ifodasi



Shuningdek, tadqiqot davomida o'quvchilar uchun eng murakkab hisoblangan diskriminant ($D = b^2 - 4ac$) tushunchasining geometrik ma'nosi ham tizimning tahlil paneli orqali yoritildi. O'quvchilar parametrlar qiymatini o'zgartirish orqali diskriminant ishorasining ($D > 0$, $D = 0$, $D < 0$) parabola va OX o'qi o'rtasidagi munosabatga ta'sirini bevosita kuzatdilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kvadrat funksiyalarni o'qitishda o'quvchilarning funksional bog'liqlikni tushunish darajasini aniqlash maqsadida dastlabki kuzatishlar va so'rovnoma o'tkazildi. Tadqiqotning boshlang'ich bosqichida "Funksiya tushunchasini to'liq tushunaman" degan o'quvchilar ulushi 7-sinfda 28%, 8-sinfda 41% va 9-sinfda 53% ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar o'quvchilar yuqori sinflarga o'tgan sari birmuncha oshish tendensiyasini ko'rsatsa-da, funksiya parametrlarining grafikdagi o'zgarishini anglash darajasi o'quvchilar tasavvurida mavhumligicha qolmoqda. Ushbu o'zlashtirish ko'rsatkichlari dinamikasi quyidagi 3-rasmda vizual aks ettirilgan.



5-rasm: O'quvchilarning funksional bog'liqlikni tushunish darajasi (So'rovnoma natijalari asosida)

Muammoni chuqurroq tahlil qilish uchun 80 nafar 9-sinf o'quvchilari ishtirokida $y = ax^2 + bx + c$ kvadrat funksiyasi parametrlari ta'sirini tushunish darajasi bo'yicha diagnostik test o'tkazildi. Olingan natijalar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: O'quvchilarning parametrlar ta'sirini tushunish darajasi (80 nafar 9-sinf o'quvchilari ishtirokida)

Parametr	To'g'ri javob ulushi	Xato javob ulushi	Javob bermaganlar ulushi
	76%	18%	6%
	71%	21%	8%
ning roli	52%	33%	15%
ning roli	34%	41%	25%
Uchi koordinatasi	27%	48%	25%

Jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar a parametrining ishorasini, ya'ni parabola tarmoqlari yo'nalishini nisbatan yaxshi o'zlashtirganlar (70 % dan yuqori). Biroq b parametrining roli va parabola uchi koordinatasini aniqlash kabi murakkabroq jarayonlarda qatnashchilarning deyarli yarmi (48 %) xato javob bergan bo'lsa, 25 % o'quvchi umuman javob bera olmagan. Buning asosiy sababi an'anaviy darslarda parametrlar ta'sirining faqat og'zaki tushuntirilishi va doskadagi statik chizmalar bilan cheklanib qolinishidir.

Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida o'quv amaliyotiga "Vizual Algebra" interaktiv tizimi joriy etildi. Tizim yordamida o'quvchilar parametrlarga istalgan haqiqiy sonlarni, jumladan 0.001, -250 yoki 1000 kabi cheksiz qiymatlarni kiritish orqali ekstremal holatlarni amalda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Tizimning dinamik masshtablash funksiyasi parabola uchi va koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalarini avtomatik ravishda aniq vizualizatsiya qilib berdi. Eksperimental sinovlar yakuniga ko'ra, "Vizual Algebra" platformasidan foydalanib o'qitilgan sinfda o'zlashtirish va materialni tushunish ko'rsatkichi an'anaviy usulda o'qitilgan guruhga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi. O'quvchilar diskriminant va simmetriya o'qi kabi mavhum algebraik tushunchalarni mexanik yodlamasdan, balki interaktiv eksperimentlar orqali shaxsan kashf etganliklari ularning fanga bo'lgan qiziqishi va faolligini oshirdi. Tizimdagi tezkor tahlillar va tayyor eksperimentlar dars davomida vaqtni tejashga hamda o'quvchilarda mustaqil tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot va amaliy tajribalar natijalari shuni ko'rsatadiki, kvadrat funksiyalarni o'qitishda vizual-eksperimental metod o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini, fazoviy tasavvurini va mustaqil izlanish ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega. An'anaviy va eksperimental guruhlar o'rtasida o'tkazilgan qiyosiy tahlillar maxsus ishlab chiqilgan "Vizual Algebra" tizimining afzalliklarini to'liq tasdiqladi. Tizim mavhum matematik tushunchalarni (masalan, diskriminant geometriyasi, parabola uchi, parametrlar ishorasi) aniq dinamik vizual obrazlarga aylantirish orqali o'quvchilardagi quruq mexanik yodlash amaliyotiga barham berdi.

Eng muhimi, bu yondashuv o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantirib, ularda funksional qonuniyatlarni ongli ravishda tushunish, gipotezalar ilgari surish va ularni ilmiy asosda kashf etish ko'nikmasini shakllantirdi. Tizimning to'liq o'zbek tilida ekanligi, ortiqcha chalg'ituvchi elementlardan xoliligi, shuningdek, cheksiz qiymatlar bilan ishlash va avtomatik matnli xulosa taqdim etish imkoniyatlari o'quvchilarning algebraga bo'lgan qiziqishini va fanga motivatsiyasini keskin oshirdi.

Shu bilan birga, o'qituvchi uchun dars jarayonida murakkab chizmalar chizish va hisob-kitoblar uchun sarflanadigan qimmatli vaqtni tejamkorlik bilan taqsimlash imkonini yaratdi. Aniqlangan pedagogik muammolarni kelgusida yanada samarali bartaraf etish, raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish va ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi: Dastur qamrovini va funksionalligini kengaytirish: "Vizual Algebra" platformasi imkoniyatlarini yanada takomillashtirib, uni maktab kursidagi boshqa murakkab mavzularga – chiziqli, kubik, ko'rsatkichli va trigonometrik funksiyalarni o'qitishga ham moslashtirish. Shuningdek, o'quvchilarning bilimni real vaqt rejimida baholash uchun tizimga interaktiv test va o'yinlashtirilgan (gamification) amaliy topshiriqlar modulini qo'shish.

Mobil ta'lim va individual yondashuvni joriy etish: o'quvchilarning uydan turib ham mustaqil shug'ullanishlari, o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lgan o'quvchilarning o'z individual sur'atida ishlay olishlari hamda masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan keng foydalanishlari uchun tizimning qulay mobil ilova (smartfon va planshetlar uchun) versiyasini ishlab chiqish. Pedagoglar uchun uslubiy va texnologik ta'minot yaratish: maktab matematika o'qituvchilari uchun ushbu platformadan STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yondashuvi asosida darslarda samarali foydalanish bo'yicha maxsus metodik qo'llanmalar, yangi avlod dars ishlanmalari to'plami va onlayn video-yo'riqnomalar tayyorlash.

Tajribani ommalashtirish va milliy ta'limga integratsiya qilish: yaratilgan interaktiv platformani hududdagi boshqa umumiy o'rta ta'lim maktablari tarmog'i bilan ulashish, ta'lim boshqarmalari bilan hamkorlikda mahorat darslari (master-klasslar) tashkil etish. Olingan ijobiy statistik natijalarga tayanib, ushbu raqamli tizimni respublika miqyosidagi o'quv jarayonlariga va elektron ta'lim resurslari bazasiga to'laqonli joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'rayev A. Matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 256 b.
2. Karimov B., Ahmedov N. Algebra va analiz asoslari. 9-sinf uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2022. – 240 b.
3. To'xtayeva Z. Ta'limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – 188 b.
4. Qodirov O. GeoGebra dasturi va undan matematika darslarida foydalanish usullari // Uzluksiz ta'lim jurnali. – 2024. – №2. – B. 45–51.
5. Sultonov R. Kvadrat funksiyalarni o'qitishda interaktiv metodlarning samaradorligi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2025. – 120 b.
6. Raximov D. Raqamli ta'lim resurslari va ularning imkoniyatlari // Pedagogik mahorat ilmiy-amaliy jurnali. – 2023. – №4. – B. 32–38.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.